

## RAHIMBOBO MASHRAB IJODINING LINGVOSTATISTIKASI

*Umidjon Qo‘ziyev Yandashaliyech*

*PhD, NamDU*

*Dilafruz Nu‘monova Mohirjon qizi*

*NamDU magistratnti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11114925>

**Abstract** - *In this article, the linguistics of Rahimbobo Mashrab's work is studied from the morphostatistical point of view, the morphostatistics of the ghazals found in the divan are determined.*

**Key words** - *Lingvostatistics, text, method, statistical method, unity, regularity, absolute quantity, analysis, relative quantity, information theory.*

**Annotatsiya** – *Ushbu maqolada Rahimbobo Mashrab ijodining lingvostatistikasi morfostatistik tomondan tadqiq etiladi, devonda uchragan g‘azallar morfostatistikasi aniqlanadi.*

**Kalit so‘zlar** – *Lingvostatistika, matn, usul, statistik metod, birlik, qonuniyat, absolyut miqdor, tahlil, nisbiy miqdor, axborot nazariyasi.*

Ma'lumki, Lingvostatistika matnni o'rganishning o'ziga xos usulidir. Matnni tadqiq qilishda statistik metodlardan foydalanilar ekan, bunday metodlar muayyan bir matnda so'z yoki ibora, bo'g'in yoki gap singari til birliklarining qo'llanishida o'ziga xos qonuniyatlarni aniqlashga qaratiladi. Til o'ziga xos tizimga ega bo'lgan ijtimoiy hodisa bo'lganligi tufayli til birliklari muayyan tizimda joylashgan bo'ladi. Lingvostatistik tahlil imkoniyatlari til birliklarining qonuniyatlarini kuzatish va shu kuzatish natijalarini qayta ishlash jarayonida aniqlanadi. Bunda tabiiy fanlarning metodlaridan foydalaniladi.<sup>3</sup> Shuning uchun lingvostatistik metodlar tabiiy-ilmiy metodlar tarkibiga kiradi.

Til muammolari statistik jihatdan axborot nazariyasi metodlari yordamida ham o'rganiladi. R.G. Piotrovskiy "Yozma matnni information o'lchash" nomli asarida bu haqida quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Til aloqa vositasi bo'lgani uchun uning birliklari lingvostatistik metodlar yordamida hamda informatsion usullar orqali baholanadi va o'lchanadi".<sup>4</sup> Prof. Ernest Begmatov ham lingvostatistika haqida o'zining yetarli ma'lumotlarini qoldirgan. Masalan, prof.E.Begmatov matn leksikasini tahlil qilishning bunday miqdoriy usullarini o'z mohiyatiga ko'ra noilmiy, nazariy jihatdan yetarli asoslanmagan bir urinish, deb hisoblaydi. Prof.E.Begmatov o'zining bu fikrini quyidagi dalillar bilan asoslashga intiladi:

<sup>3</sup> Frumkina R.M. Sticheskiye metodi izucheniye leksiki. M., 1977

<sup>4</sup> Гречачин, В. А. К вопросу о токенизации текста // Межд-дународный научно-исслед. журнал. 2016. №6(48). Ч. 4. С. 25–27. doi: 10.18454/IRJ.2016.48.070.

1. Matnlarda ko‘p bor takror qo‘llanuvchi so‘zlar (masalan, bog‘lovchilar, atoqli otlar va b.) miqdoran qanday hisoblangani bu ishlarda noaniq.
2. O‘zlashma so‘zlar asosida o‘zbek tilida yasalgan so‘zlarning o‘z qatlamga kiritilgani yoki o‘zlashma qatlamga kiritilgani ham noma‘lum.
3. Olib borilgan tahlillarda asosiy diqqat o‘zlashma qatlamning miqdoriy nisbatini aniqlash va baholashga qaratiladi, xolos.

Bu soha O‘zbekistonimizda keng o‘rganilmagan, tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, dastlabki tadqiqotlar qilgan olim V.V.Reshetov edi. 1940-yilda A.K.Borovkov ham lingvostatistik tadqiqotni amalga oshirib, gazeta materiallari bo‘yicha ilmiy tadqiqot amalga oshirdi.<sup>5</sup> Yana bu sohadagi ishlar 1964-yilda bo‘lib, I.A.Kissen tomonidan chastotalar yordamida aniqlandi. *Bugungi kunda ko‘plab olimlar lingvostatistika sohasi bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirmoqdalar ulardan A.I.Ibragimov va D.B.O‘rinboyevani misol qilib keltirishimiz mumkin. A.I.Ibragimov 2008-yilda “Bobur asarlari leksikasining lingvostatistik, semantik va genetik tadqiqi” mavzusida dissertatsiya yoqladi. D.B.O‘rinboyeva 2019-yilda “Xalq og‘zaki ijodi: Janriy-lisoniy va lingvostatistik tadqiq muammolari” mavzusida dissertatsiya yoqladi. Bugungi kunda lingvostatistika taraqqiy etib bormoqda.*<sup>6</sup>

Rahimbobo Mashrab “Devon”ining g‘azallari(“Kori muflis sahl erurkim podshoning oldida”, “Man nola qilay shom-u sahar dod eshigingda”, “Jumlayi maqsudni san zoti ollohdin tila”, “Tushti savdoyi muhabbat boshima”, “Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma”, “Har kishining dardi bo‘lsa, yig‘lasun yor ollida”, “Asli davlat din erur, mardi badavlatman dema”, “Ey sabo, g‘ambodadurman, bistarimni kavlama” va hokazo.)ni tadqiq etishda lingvostatistik metodga tayandik. Hozirgi zamon tilshunosligida til qonuniyatlarini yaxlit tizim sifatida tadqiq etish uchun lingvostatistik kuzatishlarga katta ehtiyoj sezilmoqda. Amaliyotda mazkur usulni tatbiq etish uchun lingvistik kuzatishlar mobaynida aniq faktlarga tayaniladi. Chunki matn o‘z-o‘zini tashkil etuvchi ochiq sistema sifatida hozirgi davrda mavjud bo‘lgan leksik, grammatik va fonetik axborotlarni statistik saqlash tizimi hisoblanadi. Rahimbobo Mashrab “Devon”ining tili eski o‘zbek tiliga oid bo‘lib, bunda bu davr morfostatistikasi uchun ushbu noyob asar muhim tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda Rahimbobo Mashrab ijodini o‘rganish, tanqidiy matnini tayyorlash bo‘yicha shoir, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi Mirzo Kenjabek tekstologik izlanishlar olib borayotganliklarini qayd etib o‘tish joiz.

Adabiyotlarni o‘rganish jarayonida mavzuning quyidagi holatlari dolzarb ekanligini ma‘lum bo‘ldi:

- ❖ Mashrabning eski o‘zbek tili taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi;
- ❖ Mashrab nomi bilan bog‘liq etnografizmlar, o‘xshatishlar, talmehlar, latifalarning lisoniy-madaniy tadqiqi;

<sup>5</sup> Кащеева А. В. Квантитативные и качественные методы исследования в прикладной лингвистике // Социально-экономические явления и процессы. 2013. №3(049). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kvantitativnye-ikachestvennye-metody-issledovaniya-v-prikladnoy-lingvistike> (дата обращения: 19.10.2018).

<sup>6</sup> Ибрагимова В. Л., Фаткуллина Ф. Г. Основные принципы исследования словарного состава современного русского языка // Вестник БашГУ. 2010. №2. С. 320–324.

- ❖ Mashrab qalamiga mansub “Alifnoma”larning O‘zbekistondagi tadqiqi;
- ❖ Mashrab ijodining xorijdagi (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Afg‘oniston) tadqiqi va ularning o‘ziga xos jihatlari;
- ❖ Mashrab devoni va boshqa asarlarining tekstologik-tanqidiy tahlili;
- ❖ Rahimbobo Mashrab uy-muzeyi hamda kutubxonasini tashkil etilishi masalalari;
- ❖ Mashrab xalqaro jamg‘armasini tashkil etish, asarlari qo‘lyozmalarini topish va qadamjoylarini obod qilish borasida ekspeditsiyasi tashkil etish muammosi<sup>7</sup>.

Morfologik birliklarning lingvostatistik tadqiqida so‘z turkumlarining absolut va nisbiy chastotasi muhim hisoblanadi. Morfologik birliklarni lingvostatistik tomondan tadqiq etishga morfostatistika deyiladi. Morfostatistik tahlilni amalga oshirishda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$n * 100 / U$$

Bunda n – noma’lum miqdor, U – umumiy miqdor chastotasi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘sha davrda ot so‘z turkumi yetakchilik qilgan va jonli nutq, ijod nutqida arabiy o‘zlashmalar keng qo‘llanilgan.

№	SO‘Z TURKUMLARI	ABSOLUT CHASTOTA	NISBIY CHASTOTA
1	Ot	253 o‘rinda	51,3%
2	Olmosh	26 o‘rinda	5,27%
3	Fe‘l	90 o‘rinda	18,25%
4	Ravish	14 o‘rinda	2,83%
5	Sifat	43 o‘rinda	8,72%
6	Son	10 o‘rinda	2,02%
7	Ko‘makchi	7 o‘rinda	1,41%
8	Bog‘lovchi	9 o‘rinda	1,82%
9	Yuklama	6 o‘rinda	1,21%
10	Modal	4 o‘rinda	0,67%
11	Taqlid	1 o‘rinda	0,2%
12	Undov	7 o‘rinda	1,41%
13	Birikma	27 o‘rinda	5,47%
14	Izofa birliklar	2 o‘rinda	0,40%

Ma’lumki, ot predmet va predmetlik tushunchasini ifodalaydigan so‘z turkumi bo‘lib, u grammatik son, kelishik va egalik kategoriyalariga ega. “Devon” tili(eski o‘zbek tili)da ham hozirgi o‘zbek tilidagidek, birlik son so‘z negiziga muvofiq keladi. Ko‘plik esa maxsus grammatik ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi.

-lar	1445	Ko‘plik qo‘shimchasi
Ko‘zlari	50	Ot+ko‘plik qo‘shimchasi+egalik qo‘shimchasi
Ko‘zlar	53	Ot+ko‘plik qo‘shimchasi

<sup>7</sup> Кўзиев У. Раҳимбобо Машраб ижоди тадқиқининг янги саҳифалари // ЎЗА Илм-фан бўлими. 2022, 1-сон.

Bu qo‘shimcha eski o‘zbek tilida ham ayrim holat va mavhum tushunchani bildiruvchi otlarga qo‘shilganda ko‘plikni emas, balki kuchaytirish, ta'kidlash kabi ma'nolarni ifodab kelgan:

Man tasadduqi o‘shandoq oli **himmatlar** bo‘lay, ikki olam bir qadamdur avliyoning oldida.

Rahmatan lil olaminning ummati bo‘lsang agar, Rohi aslingdin gapurma ro‘siyoning oldida.

Yoki:

Savdoyi muhabbatga tushibman sani izlab,

Uldurdi g‘aming, **ko‘zlari** jallod, eshigingda. Devonni tadqiq etar ekanmiz, devonning 51,3%ini ot so‘z turkumi tashkil qilishini nisbiy va absolut chastotalar yordamida aniqladik. Va otlarga xos egalik, ko‘plik qo‘shimchalari qo‘shilish jarayonini yuqorida tahlil etdik.

Otlardan keying o‘rinni fe’llar egallaydi. Fe’llar devonni qamrab olishiga ko‘ra 18,25%ni tashkil qiladi. Ma’lumki, fe’l barcha tillarda ham faol bo‘lgan so‘z turkumlaridan biridir. Fe’l semantik doirasi keng, lekin, asosan, ish- harakat hamda ish-harakat tasavvurini beradigan holatni anglatadi. Fe’l so‘z turkumining o‘rganilishi boshqa so‘z turkumlariga uzviy bog‘liq. Eng katta so‘z turkumi ham fe’l hisoblanadi.

Demak, statistik tahlil natijalariga ko‘ra, Mashrab badiiy nutqining katta qismini otlar va undan keying o‘rinda fe’llar egallagan. Otlarda egalik, ko‘plik; fe’llarda zamon, mayl kategoriyalari o‘sha davr grammatikasi uchun ham ahamiyatli bo‘lgan. Ayrimlari bugungi kun grammatikasi uchun yo‘q bo‘lib ketgan, ayrimlari esa qo‘llanilish doirasi chegaralangan va ayrimlari areal tomondan qo‘llanilib kelyapti.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XU1-X1X asr birinchi yarmi). Toshkent. “Fan”. 2009.
2. Akasoy, Anna. Burnett, Charles. Islam and Tibet – Interactions along the Musk Routes. 1st Edition. – Published October 3, 2016 by Routledge 406 Pages
3. Aşkari, Mustafa (Tez Danışmanı), Kanabaev, Cemaldin (Yazar) Baba Rahim Meşreb'in kişiliği, şahsiyeti ve tasavvuf anlayışı – Ankara üniversitesi, sosyal bilimler enstitüsü, temel islam bilimleri (tasavvuf) anabilim dali, 2013.
4. Axmedova Sh. Fitratning ‘Mashrab’ tanqidiy-biografik ocherki to‘g‘risida. Filologiya masalalari. Toshkent. 2010. 34-38 –betlar.
5. Baba Rahim Mashrab Namangani. Attempt by Behroz Khaliqi. – Afganistan:Pameer Prints, hijriy 1390.